



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENTLI VA TIZIMLI- AXBOROTLI YONDASHUV

Mavlonov N.Sh.

*MTTDMQTMOI “Ilmiy kotibi” pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori,
(PhD) dotsent*

Xalilayev B.T.

*Toshkent shahridagi Belorus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy
texnik kvalifikatsiyalar instituti. Matematika fani o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: kompetensiya, kompetentli, tizimli, axborotli, axborot kompetentligi, konseptual, subyekt, andragogik, kontekstli, protsessual, operatsion, refleksiv, interfaol.

Ключевые слова: компетенция, компетентный, систематика, информативный информационная, компетентность, концептуальный, субъект, андрология, контекстуальный, процессуальный, оператсии, рефлексивный, интерфейс.

Key words: competence, competent, systematics, informative informational, competence, conceptual, subject, andrology, contextual, procedural, operations, reflexive, interface.

Hozirgi zamonda jahondagi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan global o‘zgarishlar kishilarning o‘zaro ta’sirlashish va turmushda talablarini qondirishi lozim bo‘lgan ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ta’lim sifatini oshirish nafaqat bizning mamlakatimiz, balki butun jahon hamjamiyati uchun ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Uning hal qilinishi ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim jarayonini tashkil etishning optimal usullarini va texnologiyalarini izlab topish, uning natijalarining baholash bilan bog‘liqdir.

Respublikani ta’lim tizimini rivojlanishining zamonaviy davri shundaki, ta’lim tizimi axborotlashtirish va raqamlashtirish bosqichiga yo‘naltirilgan jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish va ularni ta’limga joriy etish, respublikada Internetga ulanishning tobora kengayib borishi, onlayn o‘qitish



tizimi, masofaviy o'qitish tizimiga o'tish uzliksiz ta'lim pedagogining axborot kompetentligini rivojlantirishga olib keladi.

Yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanibgina maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqaruvida hamda ta'lim-tarbiya muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi.

Bizning fikrimizga ko'ra, zamonaviy axborot-ta'lim muhit quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarurdir:

interfaollik;

personallashtirish;

o'quvchiga o'zining ta'lim faoliyatini unga taqdim etilayotgan vositalar yordamida tashkil etishga ko'maklashish;

o'qishga va fikrlashga mustaqil qobiliyatlarni rivojlantirish;

shaxs xarakterini va uning himoyalanihini tarbiyalashga ko'maklashish

D.Zaripova fikriga ko'ra axborotlashgan ta'lim bu barcha turdagi axborot texnologiyalarini, kompyuterli texnologiyalarni, axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish asosida inson xuquqlarini ruyobga chiqarishdir [1]

Zamonaviy ta'limdagi umumiy inqirozni yengib o'tish bugungi kunda ta'limni bilim va tajribalarning translyatsiyalanishi sifatida an'anaviy tarzda tushunishdan ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi subyekt sifatida noyob mohiyati va uning ta'limdagi individual trayektoriyasi tan olinadigan shaxs rivojlanishining shaxsiy-yo'naltirilgan paradigmasiga o'tishning obyektiv zarurati bilan bog'lanadi. Hozirgi zamondagi vaziyatning tahlili shaxsiy yo'naltirilgan yondashuvning konseptual modeli va uning pedagogik amaliyotda to'liq yuzaga chiqarilishi orasidagi uzilish mavjudligini ko'rsatadi. Bu qarama-qarshilikni yengib o'tish uchun so'nggi yillarda milliy didaktikamizda kompetentli yondashuv deb nomlanadigan yondashuvdan foydalanilib kelinmoqda. Kompetentli yondashuv qo'llanilishi ta'lim tizimidagi inqirozni yengib o'tish omillaridan biri sifatida ta'limning shaxsiy-yo'nalitirilgan paradigmasini doktrinal darajadan amaliy darajaga o'tkazishga urinish tarzida olib qaraladi.

Yevropadagi ta'lim rivojlanishining umumiy tendensiyalarini aks ettiruvchi Bolonya jarayoni kontekstida ta'limning maqsadi asosiy kompetensiyalarni (kompetentliliklarni) shakllantirish bilan taqqoslana boshladi.

Kasbiy ta'limdagi natijalarni baholashning "tayyorlanganlik", "ma'lumotlilik", "kasbiy madaniyat" tushunchalaridan "kompetentlilik" tushunchasiga yo'nalishi keskin o'zgarishi, mana shu asosda shakllantirilayotgan "kompetentli yondashuv" esa ta'limdagi yangicha yondashuv sifatida qayd etilishi ro'y bermoqda. Mana shunga bog'liq holda mazkur yondashuvdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik ilm-fanning kategorial apparatini aniqlashtirish va korreksiyalash



zarurati paydo bo'ldi. Bu hozirgi zamon tadqiqotchilarining ishlarida ularni tushunishning tahlilini dolzarb qilib qo'yadi.

Ta'limdagi kompetentli yo'nalish va "asosiy kompetentliliklar" haqidagi munozaralar ilmiy sohaga yangi tushunchalarni kiritish, ularning ilmiy mazmunini topish va ta'lim faoliyatiga nisbatan adekvat ravishda tushunilishi zaruratini asoslashga urinish bo'lib hisoblanadi. Milliy pedagogikada yangi o'zlashtirilgan tushunchalarning paydo bo'lish va keng tarqalishi sabablarini tahlil qila turib, muallif odatdagi va aniq ta'riflanadigan "mahorat" tushunchasining o'rniga ko'p ifodali "kompetentlilik" tushunchasidan foydalanishning maqsadga muvofiqligini shubha ostiga qo'yadi. U mazkur tushunchani "mahorat" tushunchasiga kirmaydigan, qandaydir prinsipial jihatdan yangi komponentlarga ega bo'lmagan deb hisoblaydi, bunday atamalarning kiritilishi esa "eski muammolarni yangi kiyim ostiga berkitish"ga mo'ljallangan, yasama deb sanaydi. Mahoratni shakllantirish muammosi, ularning tuzilmasi va operatsion mazmuni sovet davrlaridayoq ishlab chiqilgan edi. Umumo'quv, intellektual va amaliy mahorat tushunchalari kiritilgan edi. Ilm-fandagi yangi tushunchalar esa yangi hodisalarni bayon qilish uchun yaratilishi kerakdir. Xuddi mana shunday atamalar bizning ta'lim tizimimizda yangi paydo bo'lgan deb hisoblamaydi. Va garchi, hozirgi zamon jamiyati bulajak mutaxassis egallashi lozim bo'lgan mahoratga yangi talablarni bildirsada, yangi mahoratni tavsiflovchi prinsipial jihatdan yangi atamalarni kiritish zaruriyati yo'q.

Zamonaviy ta'limdagi asosiy qarama-qarshilik shundan iboratki, bilimlar (mos holda mahorat va ko'nikmalar ham) tobora ko'payib bormoqda, o'quvchilarning ularni o'zlashtirish bo'yicha imkoniyatlari esa cheklangandir. O'rgatish kerak bo'lgan metodlar soni ham tezkor sur'atlarda o'sib borayotgani uchun shunday o'qitish kerakki, bunda o'quvchi o'ziga kerak metodlarni osonlik bilan mustaqil ravishda o'zlashtirishi (bundan ham yuqoriroq darajada esa – ularni o'zi mustaqil egallay bilish) lozimdir. Bundan kelib chiqib, turli o'quv fanlari sohasidagi kompetensiyalarning rejalashtirilishini xuddi shunday yondashuvdan kelib chiqib amalga oshirish kerak bo'ladi.

A.Karimov jaxon tajribasiga ko'ra kuchli raqobatga bardoshli bo'lish uchun bulajak mutaxassis kompetensiyaviy talablarga javob berish shart. Xozirda xar bir mutaxassisdan kasbiy kompetensiyasini izchil rivojlantirib borish talab etilmoqda. [3]

Kompetentli yondashuvdan foydalanish muammolari bo'yicha tadqiqot ishlarini o'rganish ham "kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalarining o'zini, ham ularga asoslanadigan kompetentlilik yondashuvini talqin qilishning butun murakkabliklarini, ko'p o'lchamliligini va har xilliklarini namoyon



qiladi. Mazkur yondashuv mohiyatining nazariy-metodologik tahlili quyidagi muammolar doirasini hal qilish asosida tuzilmalanadi:

1. Kompetentli yondashuv joriy qilinishing dolzarbligi va zarurligi hamda uning an'anaviy yondashuv bilan taqqoslanishi (bilim, mahorat va ko'nikmalarga yo'naltirish bilan);

2. Kompetentli yondashuvning va uning asosiy tushunchalari – kompetensiya va kompetentlilik tushunchalarining mohiyati;

3. Kompetensiyalarni tasniflash, ularning kompetentli tarkibini asoslashning belgilanishi;

4. Ta'lim jarayonini tashkil etish va tahlil qilishga mavjud yondashuvlar iyerarxiyasida mazkur yondashuvning tutgan o'rni.

Biz o'z tadqiqotlarimizda asosiy etiborni axborot kompetentliga qaratdik.

“Axborot kompetentliliği” tushunchasini ishlab chiqishga urinish S.V.Trishina tomonidan axborot nazariyasi [4] va A.V. Xutorskiyning [5] “kompetentlilik” tushunchasini talqini asosida amalga oshirildi. Bilish jarayonini axborotli jarayon sifatida olib qaraydigan axborotli yondashuv kontekstida mualliflar mazkur tushunchani informatika fanining asosiy tushunchasi tarzida talqin qilinib, tarzidagi “axborot” tushunchasi asosida ta'riflaydilar.

O.B.Zaysevaning ishida axborot kompetentliliği deganda “innovatsion texnologiyalar sohasidagi nazariy bilimlar, amaliy mahoratning integratsiyalanishi va shaxsiy sifatning ma'lum bir to'plami asosidagi murakkab individual-psixologik hosila” tushuniladi [6]. A.L.Semyonov axborot kompetentliliğini yangicha savodxonlik tarzida olib qarab, uning tarkibiga axborotlarning kishi tomonidan faol tarzda mustaqil qayta ishlay olish mahorati, texnologik vositalardan foydalanish ko'magida ko'zda tutilmagan holatlarda prinsipial jihatdan yangicha qarorlar qabul qila olish ko'nikmasi kabilar kiritiladi [7].

M.A.Xolodnayaning ta'riği bo'yicha axborot kompetentliliği – bu faoliyatning mos holdagi sohasida, shu jumladan – pedagogik faoliyatda ham, samarali qarorlarni qabul qilishga imkon beruvchi predmetli-o'ziga xos bilimlarni tashkil etishning alohida bir tipidir [8].

Axborot kompetentliliği maktabgacha ta'lim pedagogining kasbiy kompetentliliğidagi muhim tarkibiy qism sifatida olib qarash bilan u asosiy komponentlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

1. Elektron ko'rinishda taqdim etiladigan axborotlar bilan ishlash ko'nikmalari;

2. Axborot tarmoqlaridan ma'lumotlarni izlab topish va ularni saqlashning ratsional metodlaridan foydalanishni bilishi va bu boradagi mahorati;

3. Axborotlarni Internet tarmog'ida taqdim eta olish mahorati;



4. Dars mashg'ulotlari va sinfdan tashqari ishlarni axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni tashkil eta olish va o'tkaza olish mahorati;

5. O'quvchilarning mustaqil ishlarini axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil eta olish mahorati.

Ta'kidlab o'tamanki, ayrim mualliflar "AKT kompetentligi" (axborot-kompyuter kompetentlilik) atamasini ham qo'llaydilar, bunda o'qituvchining axborot faoliyati deganda kompyuterli axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish asosidagi faoliyat tushuniladi. A.A.Yelizarov zamonaviy o'qituvchining professionalizmini predmetli-metodik, psixologik-pedagogik va AKT kompetentliliklarining sintezlanishi sifatida olib qaraydi. U AKT kompetentligi doirasida uning ikkita darajasini ajratib ko'rsatadi:

- tayanch darajasi (umumiy foydalanishdagi texnologiyalar vositalari yordamida kasbiy masalalarni hal qilish uchun fan o'qituvchisiga zarur bo'ladigan bilim, mahorat va tajribalar invariantligi);
- predmetli-yo'naltirilgan (pedagogik faoliyatga o'quv fanining talablariga mos holda ixtisoslashtirilgan texnologiyalar va resurslarni joriy qilishga tayyorlik).

D.Lining fikricha o'qituvchining AKT kompetentligi- bu malumot bilan maqsadli ishlash kunikmasi va o'quvchiga yangi bilimlarni, ma'lumotlarni yetkazishda axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo'llay olish layoqatidir.

AKT kompetentligini shakllantirishning asosi deb muallif kasbiy faoliyat tajribasini hisoblagani uchun uning tarkibiy tayanch qismlari "umumiy kompyuter savodxonligi"ga teng emasdir. Fan o'qituvchisining tayanch AKT kompetentligini u diagnostikalanadigan ko'rsatkichlarning ikkita guruhi-pedagogik faoliyatda umumiy foydalanishdagi AKT ni qo'llash haqidagi tasavvurlarning mavjudligi va ulardan foydalana olish usullarini egallaganlik darajasining kvalimetrik matritsalarini ko'rinishida taqdim etdi [10].

"Axborot kompetentligi" va "axborot savodxonligi" tushunchalarini deyarli tenglashtirgan holda L.F.Solovyeva "axborotli-kompyuterli savodxonlik"ni kasbiy ahamiyatli bo'lgan axborotlar bilan ishlashning zaruriy darajasini ta'minlovchi axborot-kompyuter texnologiyalari sohasidagi bilim va mahorat tizimi sifatida ta'riflaydi [11].

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy bilim va mahoratining muhim qismi sifatida ko'rib chiqish bilan u ikkita tarkibiy qismni – tayanch va kasbiy-yo'naltirilgan qismlarni ajratib ko'rsatadi. Tayanch bilim va mahorat - bu foydalanuvchilik minimumi bo'lib, u istalgan amaliy ta'minotni o'zlashtirish va undan amaliy foydalana olish uchun zarur bo'ladi, kasbiy-yo'naltirilgan qismi



esa – har bir kasbiy kategoriya uchun maxsus belgilangan foydalanuvchilik bilimi va mahoratining majmuasidir. Mana shunday talqinda tayanch “axborotli-kompyuterli savodxonlik” – bu o‘z mohiyatiga ko‘ra “axborot savodxonligi”, uning kasbiy-yo‘naltirilgan darajasi esa o‘qituvchining “axborot kompetentligi” tushunchasiga yaqindir.

Axborot kompetentligi shaxsning integrativ sifati tarzida talqin qilinib, u faoliyatning turli sohalarida optimal yechimlarni ishlab chiqish, qabul qilish, bashorat qilishga imkon beruvchi predmetli-o‘ziga xos bilimlarning alohida bir tipiga axborotlarni tanlab olish, o‘zlashtirish, qayta ishlash, transformatsiyalash va generatsiyalashni aks ettirish natijasi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur tushuncha tuzilmasida muallif tomonidan “axborot kompetentligi”ning beshta komponentlari ajratib ko‘rsatiladi:

1. Kognitiv – bu axborotlarni mikrokognitiv harakatlar (tahlil qilish, formal(shakl)lashtirish, taqqoslash, umumlashtirish, sintezlash, bashorat qilish) asosida qayta ishlash jarayonini aks ettiradi;

2. Qadriyatli-maotivatsion – bular axborot faoliyatining qadriyatli yo‘nalishlari, motivlaridir;

3. Texnik-texnologik – texnik qurilmalarning ishlash jarayonini, imkoniyatlarini va cheklovlarini, ma‘lum bir tipdagi vazifalarni hal qilish uchun ularni tanlab olish mezonlarini tushunish, axborot oqimlari bilan ishlashning texnologik ko‘nikmalari va mahorati;

4. Kommunikativ – muloqot qilishning turli xildagi usullari va shakllari yordamida bir kishidan ikkinchi kishiga axborotlarni uzatish davomida bilim, tushunish, tillarni (tabiiy, formal) va boshqa belgili tizimlar turlarini, kommunikatsiyalarning texnik vositalarini qo‘llash

5. Refleksiv – shaxsning o‘zini-o‘zi tartibga solishi, uning xulq-atvorini o‘zini-o‘zi boshqarishi, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini yuzaga chiqarish darajasining anlab yetilganligi.

Tizimli-axborotli yondashuv pozitsiyasidan har qanday ta‘lim jarayoni ma‘lum bir maqsadlarda tashkil etiladigan “pedagog-ta‘lim oluvchi” tizimidagi boshqariluvchan o‘zaro harakatlarining o‘ziga xos tipini namoyon qiladi. Yaxlit tizimning komponentlari orasidagi istalgan o‘zaro harakatlar ular orasidagi modda, energiya va axborotlar almashinuvi jarayoni xususiyatiga ega bo‘lgani uchun, pedagogik faoliyatni ham axborot almashinuvi bilan bog‘liq bo‘ladigan maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro harakat deb hisoblash mumkindir.

Haqiqatan ham pedagogik mehnatning istalgan tadbiri, jarayonida aniq ifodalanadigan axborotli tarkibiy qismlarni (verbal, raqamli, ko‘rgazmali- qiyofaviy, noverbal va shu kabilar) ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning har



birida potensial bilim sifatidagi o‘quv axborotlarining yig‘ilishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va taqdim etilishi mavjud bo‘lib, bunday faoliyat davomida axborotlar ta‘lim oluvchilarning shaxsiylashtirilgan bilim va tajribalariga aylanadi.

M.Maxkamova fikricha axborotlarni egallash tufayli insonlarda tafakkur, dunyoqarash, bilim, tajriba, iste‘dod namoyon buladi. [12]

Pedagogik faoliyatning psixologik tuzilmasida axborot funksiyasi shuningdek, alohida nisbatan mustaqil komponent sifatida ham ajratib ko‘rsatiladi. Mazkur yondashuv pozitsiyasidan ta‘lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilish pedagogik tizimda axborot bilan ishlashga xos bo‘lgan metodlar va vositalar bilan bilimlari yo‘llanishni jarayonining qayta tashkil etilishini bildiradi.

Malaka oshirish tizimi ta‘lim jarayonida maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarini axborot kompetentligini rivojlantirish konseptual modeli nazariy-metodologik asoslarini uni tashkillashtirish bilan bog‘liq majmuaviy konseptual yondashuv va tamoyillar tashkil qiladi. Umumiy metodologik yondashuv sifatida mohiyatan ta‘limiy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan, pedagogik jarayon subyektlarining o‘zaro hamkorligida maxsus tashkil qilingan, ta‘lim maqsadlaridan uning natijalarigacha bo‘lgan harakatlarni ta‘minlaydigan, ta‘lim jarayonini yaxlit dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqadigan xarakteristikaga ega tizimli yondashuvdan foydalaniladi. Bunda tizim osti tizimi sifatida yaxlit tizim va yagona boshqaruvni amalga oshirishni bir maqsadga birlashtirishda ajratib olingan umumiy belgilardan iborat o‘zaro tartibga solingan ko‘plab elementlar tushuniladi. Pedagogik tizim tarkibiy qismlari hamkorlikda pedagogik jarayonni yuzaga keltiradi va uning optimal maromda kechishini ta‘minlaydi.

Tizimli axborotli yondashuvning asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) yondashuvning nisbatan avtonom ichki tarkibiy qismlarining birligi sifatida tushuniladigan yaxlitlik tamoyili;

2) tarkibning o‘z xususiyatlari bilan bir qatorda uning alohida olingan elementlari xususiyatlari bilan izohlanadigan tizimini amalga oshirish jarayonida aniq tashkiliy tarkib doirasidagi elementlar tizimi va ularning o‘zaro aloqalarini tahlil qilish imkonini beradigan tarkibilik tamoyili;

3) o‘z navbatida, har bir tarkibiy qismi alohida tizim sifatida qaraladigan, tizimning alohida olingan komponentlari sifatida tadqiqotini amalga oshirishga yo‘l ochib beradigan iyerarxiyalik tamoyil;

4) tizim va muhitning o‘zaro hamkorlikdagi tamoyili – tizim faol tarkibiy qism sifatida tashqi va ichki muhit bilan hamkorlikda o‘zining xususiyatlarini shakllantiradi va ularni namoyon qiladi;



| | | | |
|--|------------------------|--|--|
| I.Hamkorlik subyekt va obyektleri | | II.Loyihalash maqsadlari. | |
| Kurs tinglovchilari | ADM | PO‘T | Pedagog axborot kompetentligini samarali rivojlantirish sharoitlarini yaratish |
| III.Loyihalashtirishning nazariy asoslari | | | |
| Asosiy yondashuvlar: | | Loyihalashtirish tamoyillari: | |
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Tizimli axborotli yondashuv 2. Kompetenli yondashuv 3. Andragogik yondashuv 4. Shaxsiy-faoliyatli 5. Kontekstli yondashuv | | <ol style="list-style-type: none"> 1. Ilmiyligi, yaxlitligi, tizimligi. 2. Ochiqligi va variativligi 3. Subyektning o‘z ta’lim faoliyatini mustaqil loyilashi 4. Individual intiluvchanligi 5. Ta’lim va kasbiy-shaxsiy rivojlanishining yaxlitligi(birligi) 6. Kasbiy faoliyat va tajriba integratsiyasi 7. Ta’lim natijalarining ekologik yo‘nalganligi | |
| IV. Asosiy komponentlar | | | |
| Maqsad-mazmunli; | Tashkiliy-protsessual; | Operatsion-texnologik; | Natijaviy-baholash; |
| V.Loyihalashtiriladigan shartlar: | | | |
| <ol style="list-style-type: none"> 1.Ta’lim mazmunini o‘qituvchi axborot kompetentligi modeli asosida qurish; 2.Psixologik to‘siq va xavotirli vaziyatlarni yengib o‘tishda diagnostikani amalga oshirish va yordam ko‘rsatish; 3.Tinglovchilar subyektiv faoliyatlarini faollashtirishni ta’minlash maqsadida quyidagi vositalarni qo‘llash: <ul style="list-style-type: none"> - tajriba va kasbiy faoliyat integratsiyasi; | | | |
| <p align="center">1-rasm. Malaka oshirish jarayonida tarbiyachilar axborot kompetentligini rivojlantirishning konseptual modeli</p> | | | |

5) har biri tizimning ma’lum bir jihatlarini ifodalaydigan ko‘plab turli modellar qurilishini adekvat bilishni talab qiladigan har bir murakkab prinsipdagi tizim kuchiga yarasha ko‘plik tamoyili.

Tizimli axborotli yondashuvni qo‘llash tarkiban (kichik tizimlari va elementlari miqdori bo‘yicha) hamda tarkibiy qismlari (1-rasm) hamkorlik xarakteri jihatidan murakkab dinamik tizim sanaladigan maktabgacha ta’lim pedagoglari malakasini oshirish tizimi ta’lim jarayonini kompleks tadqiq qilish va uni ifodlash imkonini beradi. Mazkur ta’lim jarayoniga xos bo‘lgan konseptual yondashuvning qiyosiy asoslari 1-rasmda o‘z aksini topgan.

Mazkur masalani mufaffaqiyatli amalga oshirish ta’lim jarayoni subyektlari sifatida talim oluvchilar hayotiy faoliyatini tashkil qilishning ma’lum axborot-



didaktik muhiti (ADM) tizimi mavjudligi sharoitida mumkin bo‘ladi. U moddiy-texnik ta’minot (texnik qurilmalar jamlanmasi, dasturiy metodik ta’minot), ta’lim mazmuni va pedagogik vositalarni o‘z ichiga oladi.

O‘qitish mazmuni va o‘qitishning turli vositalarini qo‘llash asosidagi kurs tinglovchilari va o‘qituvchilarning hamkorligi ta’lim jarayonining mohiyatli xarakteristikasi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim pedagoglari malakasini oshirish ta’lim jarayonining tarkibini shakllantiruvchi elementini uning amalga oshirish jarayonida hal qiluvchi darajaga ega bo‘lgan barcha elementlari va yaxlit holdagi pedagogik tizimning barcha komponentlariga aloqador bo‘lgan elementlari tashkil qiladi. Kompetentli yondashuv kontekstida maqsadning asosiy xarakteri – stikasi “natija” tarzida shakllantiriladi. Chunki malaka oshirishdan kutilgan natija – maktabgacha talim tashkilot pedagogining axborot kompetentligini rivojlantirishni yangi sifat o‘zgarishiga olib kelish, ta’lim jarayonining maqsadi esa uni yanada samarali rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo‘ladi.

Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan, ta’lim jarayonining metod, usul va shakllari, ta’sirchan muloqot vositalari, tashkiliy shakllarining ayrim alohida olingan tarkibiy komponentlarini darajaga ko‘tarish maqsadga muvofiq emas. Chunki ular pedagogik jarayonda xuddi maqsad singari dinamik tizim bilan hamjihatlikda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, maktabgacha talim tashkilotlari pedagoglarini malaka oshirish ta’lim jarayoni o‘zida o‘zaro muvofiqlikdagi (faoliyatlar almashinuvi) uning subyektlari tomonidan ma’lum maqsad bilan maxsus tashkil qilingan faoliyat sharoitidagi harakatlardan iborat dinamik tizimni taqdim etadi. Bu dinamik harakatni kuzatish imkonini beradigan ta’lim jarayonining asosiy birligi faoliyat maqsadi va uni amalga oshirish sharoitlari nisbatidan iborat pedagogik vazifa – pedagogik vaziyat hisoblanadi, unga talim tizimidagi pedagogik vazifalarni anglab yetish va ularni hal qilish sifatida qaraladi.

Adabiyotlar:

1. D.Zaripova. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida kasb ta’limi yo‘nalishi talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. (PhD) p.f.b.f.d. dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2020. 12b
2. A.Karimov Kasb hunar ta’limida kompetensiyaviy yondashuv asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish (PhD) p.f.b.f.d. dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2019. 12b
3. Trishina, S.V. Informatsionnaya kompetentnost spetsialista v sisteme dopolnitelnogo professionalnogo obrazovaniya [Elektronnyy resurs] /S.V. Trishina, A.V. Xutorskoy //Internet-jurnal “Eydos”. 2004. 22-iyun. - Rejim dostupa: <http://www.eidos.ru/jumal/2004/0622-09.html>, svobodnyy.
4. Xutorskoy, A.V. Klyuchevye kompetentnosti i obrazovatelnye standarty [Elektronnyy resurs] /A.V. Xutorskoy; Doklad na otdelenii filosofii obrazovaniya i teorii pedagogiki RAO 23-aprelya 2002. Sentr “Eydos”. - Rejim dostupa: www.eidos.ru/news/compet.html, svobodnyy.



5. Zayseva, O.B. Formirovaniye informatsionnoy kompetentnosti budushix uchiteley sredstvami informatsionnykh texnologiy [Tekst]: Dis...kand. ped. nauk: 13.00.08 /O.B. Zayseva. - Armavir, 2002. - 169 s.
6. Semenov, A.L. Rol informatsionnykh texnologiy v obщем srednem obrazovanii [Tekst] /A.L. Semenov. - M.: Izd-vo MIPKRO, 2000. - 12 s.
7. Xolodnaya, M.A. Psixologiya intellekta [Tekst] /M.A. Xolodnaya. - M., 1997.-391 s.
8. Ivanova, Ye.V. Formirovaniye informatsionnoy kompetentnosti - vajneyshaya zadacha professionalnoy podgotovki uchitelya [Elektronnyy resurs] /Ye.V. Ivanova // Kongress konferensiy «Informatsionnye texnologii i obrazovaniye». - Rejim dostupa: www.ito.su/2003/n/3/n-3-3307.html, svobodnyy.
9. Yelizarov, A.A. Bazovaya kompetensiya kak osnova Internet-obrazovaniya uchitelya [Elektronnyy resurs] /A.A. Yelizarov //Materialy konferensii RELARN-2004. Tezisy doklada. - Rejim dostupa: http://www.relam.ru:8080/conf/conf2004/section3/3_1.html, svobodnyy.
10. Solovyeva, L.F. Kompyuternye texnologii dlya uchitelya [Tekst] /L.F. Solovyeva. - SPb.: BVXV-Peterburg, 2004. - 160 s. 7-8-b
11. M.Maxkamova Texnika oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida talabalarda axborot axborotini shakllantirish. (PhD) p.f.b.f.d. dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2019. 10b

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining axborot kompetentligini oshirishda kompetentli va tizimli-axborotli yondashuvlari va direktorlarning axborot kompetentligini rivojlantirishning konseptual modeli, o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны компетентный и системно-информационный подходы к развитию информационной компетентности директора дошкольной образовательной организации, а также концептуальная модель развития информационной компетентности директора, ее особенности.

SUMMARY

This article describes competent and system-information approaches to the development of information competence of the director of a preschool educational organization, as well as a conceptual model for the development of information competence of the director, its features.